

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus
ta’lim vazirligi

Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti

**“TURKIY
FILOLOGIYAGA KIRISH”
FANIDAN MA’RUZA
MATNI**

5220100 – Filologiya (turk tili) ta’lim yo‘nalishi
bo‘yicha o‘qiyotgan talabalar uchun

Tuzuvchi: Q. OMONOV

Mavzu: “Kirish. Turkiy tillarning oltoy tillari orasida tutgan o‘rni”.

T a y a n c h t u s h u n c h a l a r: *filologiya, turkiy filologiya, turkiy xalqlar, turkiy tillar, turkiy adabiyot, turkiy xalqlar tarixi, turkiy xalqlar madaniyati, turkiy xalqlar etnografiyasi, turkiy matnchilik tarixi; turkshunoslik = turkologiya; oltoy nazariyasi, oltoy tillari oilasi, oltoyshunoslik.*

D a r s y o‘ r u g‘ i:

- “Turkiy filologiyaga kirish” fanining maqsadi, kurs oldiga qo‘yilgan vazifalar.
- “Turkiy filologiyaga kirish” predmetining ob‘ektlari.
- Oltoy tillari nazariyasi.
- Oltoy tillarining genetik qardoshligi to‘g‘risida.
- Turkiy tillar va ularning dunyo tillari orasida tutgan o‘rni.

D a r s n i n g q i s q a b a y o n i:

Turkshunoslik (turkologiya) muayyan tizim ko‘rinishida ilk o‘rta asrlarda yuzaga keldi. Turkologiya fanining qamrovi keng bo‘lib, u o‘zida turkiy tillar va adabiyotlar, turkiy qavmlar tarixi, turkiy elatlarning kelib chiqishi, davlatchiligi, mafkurasi, madaniyati, dini, dunyoqarashi, iqtisodi, umuman, turkiy ulusni o‘rganish bilan bog‘liq barcha yo‘nalishlarni o‘zida jamlaydi.

Turkiy filologiya esa turkiy xalqlarning tili, adabiyoti va folklorini o‘rganishni o‘z ichiga olgan tarmoqdir.

Fanda turkiy tillar oltoy tillari oilasi qurshovida o‘rganiladi. XIX asrning boshlarida Yevropada qiyosiy-tarixiy tilshunoslik usullari ildiz ota boshladi. Ana shu tilshunoslik vakillari R.Rask, V.Shot, M.Kastren lingvistikada oltoy tillarining genetik qardoshligi masalasini ilgari surdilar. Unga ko‘ra turkiy tillar, mo‘g‘ul, tungus, manjur, koreys tillari bilan birga oltoy tillari oilasini tashkil etadi. Keyinchalik bu g‘oya O.Betling, V.Tomsen, G.Vinkler kabi yirik tilshunoslar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Mavzu: “Turkiy filologiya, turkshunoslik fanining yuzaga kelishi va tiklanish bosqichlari”.

T a y a n c h t u s h u n c h a l a r: *Ko‘k turk obidalari. Yo‘llic‘ tigin. To‘nyuquq. Arab lingvistik maktabi. Mahmud Koshg‘ariy. “Devonu lug‘otit turk”. O‘rta asrlarning turkiy tilshunosligi. Turkiy filologiya markazlari. Mahmud Zamaxshariy. Ibn Muhanna. Jamoliddin at-Turkiy. Abu Hayyon. Muqaddimatul adab. Kitobi majmu-u-tarjimoni-t-turki va ajami va mug‘ali. Kitab al idrok lil-lisan al-atrok. Xiliat-ul-inson va xilibat-ul lisan. Kitabul-lug‘at al-mushtoq fil-lug‘ati- t-turk val qifchaq. At-Tuhfat-uz zakiyati fil-lug‘ati-t-turkiya. Alisher Navoiy. Muhokamatul-lug‘atayn. V. Tomson. V. Radlov. V. Bang. R.Arat.*

Dars yo'rug'i:

- Turkiy filologiyaning yuzaga kelishiga asos bo'lgan omillar.
- Turkshunoslikning taraqqiyot bosqichlari.
- Eng qadimgi davr turkshunosligi.
- Yo'llug' tigin va To'nyuquqning turkiy filologiya taraqqiyotiga qo'shgan ulushi.
- Turkiy filologiyaning o'rta asrlardagi rivoji..
- Arabshunoslik va turkshunoslik.
- Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari turkshunoslikning nodir asari.
- O'rta asrlarda turkshunoslik markazlari.
- Turkiy tillarga bag'ishlangan filologik tadqiqotlar.
- XIX yuzyillikda turkiy filologiyaga bo'lgan qiziqishning ortishi.
- Yevropadagi turkshunoslik markazlari.
- O'zbek turkshunosligining hozirgi ahvoli.

Darsning qisqa bayoni:

Turkshunoslik bugungi qiyofasini topgunga qadar uzoq tarixiy takomil bosqichini o'tagan. Uning hozirgi ko'rinishiga yetishida dunyoning turli mintaqasidagi xalqlar ma'rifiy faoliyatining samarasi yotibdi.

X yuzyillikdan boshlab dunyoda turkiy qavmlarning mavqei o'sa bordi. Ana shu kezlardan boshlab, turkiy xalqlar Yevroosiyo qit'asida yirik imperiyalarga asos soldilar. Bu esa turkiy tilning nufuzini ortishiga va boshqa xalqlarning turkiy tilni o'rganishga bo'lgan ehtiyojini oshishiga sabab bo'ldi. Ushbu jarayon XV asrga qadar davom etdi. Turkiy filologiyaning shakllanib, oyoqqa turib olish bosqichi shu davrlarga to'g'ri keladi. Turkiy tillarning o'rganishga bag'ishlangan yirik filologik asarlarning ko'pchiligi ayni kezda yuzaga kelganini boisi shundan. Ular haqida qisqa to'xtalamiz.

Devonu lug'otit turk. Turkiy tilni o'rganish bo'yicha yaratilgan filologik tadqiqotlarning eng eskisi Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" ("Turkiy so'zlar devoni") asaridir. Asar hijriy 469 yili (melodiy 1076/1077 yilda) yozib tugallangan.

Kunimizgacha "Devonu lug'otit turk"ning bir qo'lyozmasi saqlangan. U hijriy 664 (melodiy 1266 yilda) kotib Muhammad ibn Abubakr ibn Abdulfath as-Saviy ad-Damashqiy ko'chirgan. Uning yozishicha, mazkur qo'lyozma Mahmud Koshg'ariyning o'z qo'li bilan bitilgan nusxasidan ko'chirilgan.

"Devonu lug'otit turk" ikki - muqaddima va lug'at bo'limlaridan tuzilgan. Muqaddimada kitobning yozilish sabablari, uning tuzilishi, turklar qo'llaydigan yozuv, otlarning yasalishi, fe'llarning tuslanishi, so'z tarkibi masalalariga e'tibor qaratilgan, shuningdek, grammatik qoidalar, turk urug'larining ta'rifi, yerlashuv o'rni, turk lahjalaridagi farqlar xususida so'z yuritiladi. Asarning lug'at bo'limida esa 8500 ortiqroq leksik birlik izohlanadi.

Mahmud Koshg'ariy dunyo fani tarixida turkshunoslik fanining asoschisi va qiyosiy-tarixiy metodni birinchi bo'lib qo'llagan tilshunos sifatida tan olinadi.

Muqaddimatul adab. O'rta asrlarda turkiy tilshunoslikning taraqqiyotiga ulkan ulush qo'shgan olimlarning biri bu yurtdoshimiz Mahmud Zamaxshariydir. U XI - XII asrlarda yashab, ijod etdi. Zamaxshariyning til, falsafa, tarix, stilistika, ilohiyot, tafsir ilmiga oid 50 dan ortiq asarlari bizgacha yetib kelgan. Muhimi, biz uchun ushbu asarlar ichida ko'p tilli lug'at sanaluvchi "Muqaddimatul adab"(Adab ilmining boshlanishi) tadqiqotining borligidir. Asardagi faktik material XII asr turkiy adabiy tilning leksikasi xususida to'laqonli malumot beradi. Asarda misollarni berish tartibi quyidagicha: boshlab arabcha misol, so'ng uning forsha izohi va nihoyat, turkiy so'zlik beriladi: *baqara = moda gov = inek* ya'ni, sigir yoki *savr = gov = ukuz* ya'ni hukiz. Tadqiqotda so'z birikmasi va gap ham ayni shu tartibda keltiriladi: *shabbaal farasu = barjast va bozi kard asp = sakradi dag'i o'ynadi at* (mazmuni: ot sakradi va o'ynadi).

Kitobi majmu-u-tarjimoni-t-turki va ajami va mug'ali. XIII asrdan boshlab turkiy tilshunoslikning ulkan filologik asarlari yaratila boshlandi. Bu chog'da Misr turkiy lingvistikaning markaziga aylandi. Boisi, ayni vaqtda Misrda kelib chiqishi turkiy qavmlarga tegishli bo'lgan mamluklar hukumatni boshqarar edi.

Misrda yozilgan tadqiqotlardan biri "Kitobi majmu-u-tarjimoni-t-turki va ajami va mug'ali" asaridir. Yozuvchisi noma'lum mazkur lug'atning asosiy qismi arabcha - turkiycha so'zlikdan iborat. Asosiysi, muallif asarning kirish qismida turkiy tilshunoslik bo'yicha juda ko'p asarlar borligini ta'kidlaydi. Bu esa turkiy tilshunoslik maktabi an'analari ancha erta shakllanganidan darak beradi. Asarda 1500 leksik birlik jamlanib tahlil etiladi.

Kitab al idrok lil-lisan al-atrok. Misr zaminida bitilgan filologik tadqiqotlaridan yana biri Abu Hayyon al-Andalusiyning “Kitab al idrok lil-lisan al-atrok” asaridir. Asar ikki bo‘limdan - lug‘at va grammatikadan tashkil topgan. Abu Hayyonning bundan boshqa yana to‘rt asari turkiy tillar tadqiqiga bag‘ishlagan.

Xiliat-ul-inson va xilibat-ul lisan. XIII asrning so‘nggi choragida “Xiliat-ul-inson va xilibat-ul lisan” asari dunyo yuzini ko‘rdi. Uning muallifi Jamoliddin ibn Muhanna hisoblanadi. Asar turkiy tillarning o‘g‘uz lahjasini tekshirishga bag‘ishlanadi. Izlanuvchilar asar Ozarbayjonda yozilgan deb tahmin qilishadi.

Kitabul-lug‘at al-mushtoq fil-lug‘ati-t-turk val qifchaq. Turkiy tillarning qipchoq shevasiga tegishli material jamlangan lug‘atlardan biri Jamoliddin at-Turkiyning “Kitabul-lug‘at al-mushtoq fil-lug‘ati-t-turk val qifchaq” kitobidir. Asar qipchoq va turkiy tillarni o‘rganish uchun mo‘ljallab tuzilgan.

At-Tuhfat-uz zakiyati fil-lug‘ati-t-turkiya. Turkiy tilning o‘rganishga bag‘ishlan yirik asarlardan yana biri “At-Tuhfat-uz zakiyati fil-lug‘ati-t-turkiya” asaridir. Fanda asarning bir nusxasi mavjud bo‘lib, u Istanbulda “Valiuddin afandi” kutubxonasida saqlanadi. Tadqiqot uch bo‘limdan iborat: kirish, lug‘at va grammatik ocherk.

Muhokamatul lug‘atayn. O‘rta asr turkiy filologiya yo‘nalishining buyuk cho‘qqisi Alisher Navoiyning “Muhokamatul lug‘atayn” asaridir. U 1499 yilda yozilgan.

Navoiy “Muhokamatul lug‘atayn” tadqiqoti bilan turkiy filologiya tarixiga juda katta hissa qo‘shdi. Asarda ikki til – turkiy va forsiy til chog‘ishtirib tahlil etiladi.

XIX asrdan boshlab turkiy filologiya yo‘nalishi Yevropada ham keng o‘rganila boshlandi. Ayniqsa, bu borada V. Tomson, V. Radlov, V. Bang, R. Arat kabi turkshunoslarning ishlari ayrica o‘ringa ega. Shuningdek, o‘zbek turkshunosligi ham o‘zbek fanining yetakchi tarmoqlaridan biri sanaladi.

Mavzu: “Turkiy xalqlarning etnogenez masalasi”.

T a y a n c h t u s h u n c h a l a r: *qabila, urug‘, etnos, etnik jarayonlar, xalq, millat, etnogenez, saklar, iskiqlar, xunlar, ko‘k turklar, turk etnonimi, qoraxoniylar, o‘zbek, sart, usmonlilar, etnonim, onomastika.*

D a r s y o ‘ r u g ‘ i :

- Qadimgi manbalarda keltirilgan O‘rta va Markaziy Osiyo turkiy xalqlari haqidagi ma’lumotlar.
- Qadimgi sak, iskif, usun va xunlarning etnik tarkibi.
- “Turk” etnonimi va uning yuzaga kelishi tarixidan.
- Turkiy xalqlar tarixida xun va turk xoqonliqlari davri.
- Ilk va o‘rta asrlarda turkiy xalqlar. Turkiy xalqlarning eski otlari.

Darsning qisqa bayoni:

Turkiy xalqlarning eng qadimgi ajdodlari Markaziy Osiyo yerlarida yashagan. Tarixchilarning fikricha, turkiy elatlarning o'tmishi 5000 ming yillik tarxiga ega.

Hozirda turkiy qavmlar deb yuritilayotgan xalqlar qadimda turli etnonimlar bilan yuritilgan. Yozma manbalarda turkiy urug'larning eng eski otlari sak, iskif. usun atamaları qayd etilgan. Tarixda turkiy qavmlar qurgan eng yirik imperiyalardan biri "buyuk xun davlati"dir. Xitoy manbalarida ular to'g'risida ko'p ma'lumotlar saqlangan.

Ilk o'rta asrlarda turklar qurgan yana bir qudratli saltanat "turk xoqonlig'i" oti bilan ataladi. Ushbu imperiya yuzaga kelgan kezdan boshlab, turkiy urug'lar umumlashtirilib "turk" etnonimi bilan yuritila boshlandi.

VI yuzyilliklardan boshla "turk" atamasi siyosiy uyushmaning oti, ya'ni "butun turkiy xalqlarni birlashtirib turuvchi ittifoq" ma'nosida qo'llanilgan.

O'rta asrlar Markaziy Osiyo hududida yashovchi turkiy xalqlarning tiliga nisbatan *turkcha*, *turk tili*, *turkiy*, kabi atamalar ishlatilgan.

Shuningdek, turkiy adabiy til "xoqoniya tili", "xoqoniya turkchasi" (Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk»ida), "bug'raxon tili", "xon tili" (Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida) kabi nomlar bilan atalgan. XIII–XV asrlarning adabiy tili esa "chig'atoy tili", "chig'atoy turkchasi", "chig'atoycha" oti bilan yuritilgan.

Turkiy xalqlar kechmishida yuzaga kelgan saltanatlarning nomi o'sha davlatni qurgan kishining oti bilan atalgan. Chunonchi, Sulton Temurbek qurgan saltanat *temuriylar* oti bilan yoki Usmon g'oziy asos solgan davlat *usmonlilar* nomi bilan, shuningdek, Shayboniyxon asos solgan davlat uning oti bilan *shayboniylar* davlati deb atalgan.

Mavzu: "Turkiy tillar tarixini davrlashtirish masalalari".

T a y a n c h t u s h u n c h a l a r: *oltoy davri*, *xun davri*, *qadimgi turkiy adabiy til*, *eski turkiy adabiy til*, "chig'atoy turkiysi", *usmonli turkchasi*, "turk-qipchoq tili", *hozirgi turkiy tillar*.

Dars yo'rug'i:

- Turkiy tillar tarixining oltoy davri (chegarasi aniqlanmagan).
- Xun davri va uning turkiy tillarning yuksaluvidagi o'rni (eramizdan burungi kezlardan eramizning V asrigacha).
- Qadimgi turkiy adabiy til davri (melodiy V – X yuzyilliklar).
- Eski turkiy adabiy til bosqichi (o'rta asrlarning X – XV yuzyilliklari).
- Eski o'zbek tili (XIV – XIX asrlar oralig'i).
- Usmonli turkchasi (XIV – XIX asrlar).

• Hozirgi turkiy tillar bosqichi (XX asrning birinchi choragidan hozirga qadar).

Darsning qisqa bayoni:

Bugunga qadar turkiy tillar tarixining tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarda til tarixida kechgan til taraqqiyotining turli bosqichlarini xronologik chegarasini ko'rsatishda turkshunoslar o'rtasida turli qarashlar mavjud.

N.A Baskakov turkiy tillarning rivojlanish tarixini quyidagi davrlarga bo'linadi:

I. Oltoy davri. Turkiy tillar taraqqiyotining eng qadimgi, ilk bosqichi bo'lib, bu davrning muayyan sanalari fan tomonidan aniqlangan emas. Chunki tarixiy xujjatlar yo'q.

II. Xun davri (eramizdan burungi III asrlardan melodiy V asrgacha).

III. Qadimgi turk davri (V - X asrlargacha).

IV. O'rta turk davri (X – XV yuzyilliklar).

V. Yangi turk davri (XIV - XIX asrlar).

VI. Eng yangi davr (XIX - XX asrlar).

S. Ye. Malov turkiy tillarning rivojlanish tarixini uch davrga bo'ladi:

1. Turkiy tillarning **d-lashgan** davri : Bu hodisa qadimgi ko'k turk va uyg'ur yozuvi yodgorliklari uchun xos xususiyatdir. So'z o'rtasi va oxirida **y** tovushi **d** tarzida aytiladi : *adaq (ayaq), adir (ayir), qod (qo'y)* kabi.

2. **O'tish davri**. Bu davrda turkiy tillar d-lash hodisasidan y-lashga o'ta boshlaydi: *kidim - kiyim, kedin - keyin, adir - ayir* kabi.

3. Turkiy tillarning **y-lashish davri**. Bu davrda turkiy tillarning tabaqalanishi va alohida adabiy til ko'rinishida ajralib chiqishi kuchaydi, yangi turkiy adabiy tillarning tashkil topishiga zamin tayyorlanadi.

Turkiy tillarni tasniflash va uning taraqqiyoti tarixini davrlashtirish bilan bog'liq ravishda o'zbek adabiy tili tarixi ham olimlar tomonidan turlicha davrlashtiriladi. Jumladan, rus turkshunosi S. Ye.Malov o'zbek adabiy tili tarixini uch davrga bo'ladi:

1) Uyg'ur adabiy tili davri.

2) Chig'atoy adabiy tili davri.

3) O'zbek adabiy tili.

Bu davrlashtirishga ko'ra hozirgi o'zbek adabiy tili chig'atoy adabiy tilidan kelib chiqqan.

A. N Samoylovich o'zbek adabiy tili tarixini uch davrga bo'ladi:

1. Qoraxoniylar davri adabiy tili (X - XI asrlar). Bu davr qoraxoniylar davlatida shakllangan va keng qo'llangan sharqiy turkiy adabiy til va shu tilda yozilgan asarlar bilan ajralib turadi.

2. O'g'uz-qipchoq adabiy tili (XII - XIV asrlar). Bu davr Xorazmda o'g'uz-qipchoq dialekti negizida rivojlangan g'arbiy turkiy adabiy til hamda bu yerda yaratilgan asarlar bilan bog'langan.

3. O'rta Osiyo turkiy adabiy tili (XIV - XX asrlar). Bu davr tili shu asrlar davomida turkiy-eski o'zbek adabiy tilida yaratilgan asarlar bilan bog'langan. Hozirgi o'zbek adabiy tili esa O'rta Osiyo turkiy adabiy tilining davomi deb qaraladi.

A. M. Shcherbak o'zbek adabiy tili tarixini to'rt davrga bo'lib o'rganadi:

1. O'zbek adabiy tilining eng qadimgi davri (X - XIII asrlar). Bu davr asosan sharqiy turkiy adabiy til hamda ma'lum darajada g'arbiy turkiy adabiy til bilan bog'langan.

2. O'zbek adabiy tilning o'rta "chig'atoy tili" davri (XIV - XVII asrlar). Bu davr tili asosan eski o'zbek adabiy tili hamda shu tilda yozilgan asarlar bilan bog'langan.

3. O'zbek adabiy tilning yangi (XVII - XVIII asrlar). Bu xonliklar davri adabiy tilini qamrab oladi.

4. O'zbek adabiy tilining eng yangi davri (XIX - XX asrlar).

Mavzu: "Turkiy tillar va ularning tasnifi".

T a y a n c h t u s h u n c h a l a r: tillarning tasnifi, g'arbiy xun qanoti, sharqiy xun qanoti; qarluq, o'g'uz, qipchoq, bulg'or guruhlar.

D a r s y o' r u g' i:

- Turkiy tillarni tasniflash masalasi.
- Turkiy tillarni qurilishiga ko'ra (tipologik jihatdan) tasniflash.
- Turkiy tillarni tovush qurumiga ko'ra tasniflash.
- Turkiy tillarni joylashuv o'rniga ko'ra tasniflash.
- Turkiy tillarni kelib chiqishiga ko'ra (genetik jihatdan) tasniflash.
- Turkshunoslikda amalga oshirilgan tasniflar ochiqalmasi.

D a r s n i n g q i s q a b a y o n i:

Turkiy xalqlar tarixiy taraqqiyoti davomida nihoyatda keng hududlarga yoyildi. Ular Oltoydan Dunaygacha, Sibirdan Xurosonga qadar cho'zilgan o'lgan mintaqada makon qurdilar. Shu jihatdan, turkshunoslik ilmida turkiy xalqlar va tillarning kelib chiqishi, o'zaro yaqinligi nuqtai nazaridan guruhlarga ajratish, ularni tasniflash doimo muhim vazifa sanalgan.

Turkiy tillarini ilk bor tasnif qilingan olim XI asrning buyuk tilshunosi Mahmud Koshg'ariydir. U o'zining «Devonu lug'otit turk» asarida turkiy tillarning bir-biridan farqlovchi xususiyatlari haqida malumot beradi.

Turkiy xalqlarning yevropa ilmi nuqtai nazardan guruhlarga ajratgan V. V. Radlov hisoblanadi. V. V. Radlov o'z tadqiqotlarida turkiy xalqlar tasnifini ishlab chiqadi va jug'rofiy yondoshuv asosida ularni to'rt guruhga ajratadi:

1. *Sharqiy guruh* (bunga oltoy, xakas, shor, tuva va enasoy turklarning tillarini kiritadi).

2. *Gʻarbiy guruh* (Sibir tatarlari, boshqird, tatar, qirgʻiz, qozoq va qoraqalpoq tillarini misol qilib keltiradi).

3. *Oʻrta Osiyo guruhi* (uygʻur, oʻzbek va Afgʻoniston oʻzbeklarining tillari kiradi).

4. *Janubiy guruh* (turkman, ozarbayjon va turk tillari kiradi).

A.N Samoylovich esa turkiy tillarni tasnif qilishda fonetik prinsipga asoslanadi. U turkiy tillarni olti guruhga boʻladi:

1. *R guruhi*. Bu tillarda qadimgi turkiy tildagi **z** va keyingi **y** ga oʻtgan tovush **r** tovushi bilan aytiladi: *azaq - ayaq (oyoq) = ura* kabi. Bu guruhga eski bulgʻor va hozirgi chuvash tillari kiradi.

2. *D guruhi*. Bu tillarda **z** tovushi kelgan oʻrinlar **d** tovushi bilan almashtiriladi. Bu guruhga tuva, qaragas, salar, shor, xakaslarining tillari kiradi.

3. *Taw guruhi*. Bu tillarda *tagʻ* soʻzi *taw* tarzida aytiladi. Bu guruhga oltoy, qirgʻiz, qumiqliq, qarachay, balqar, tatar, boshqird, qaraim, noʻgʻay, qozoq, umuman, shimoliy-gʻarbiy turkiy tillar kiradi.

4. *Tagʻliq guruhi*. Bu uyumga kiruvchi turkiy xalqlar *tagʻlik* soʻzni *tagʻliq* shaklida talaffuz qilishadi. Bu guruhga eski oʻzbek tili, hozirgi oʻzbek va uygʻur tillari kiradi.

5. *Tagʻli guruhi*. Ushbu guruh tillarida *tagʻli* soʻzi *tagʻli* da sifatida aytiladi. Bu guruhga Xorazm oʻzbek tili shevasi kiradi.

6. *Ol- guruhi*. Bunda bol- feʻli ol- tarzida aytiladi. Bu guruhga turkman, ozarbayjon, turk, gagauz kabi janubiy- gʻarbiy turkiy tillar kiradi.

S. Ye. Malov oʻz asarlarida turkiy tillar tasnifiga doir bir qator qiziqarli fikrlarni bayon qiladi. U fanda mavjud tasniflarga oʻzining qoʻshimchalarini kiritdi. Turkshunos oʻz tasnifida eskirgan xususiyatlarning saqlanishi hamda yangi xususiyatlarning hosil boʻlishi jihatidan barcha turkiy tillarni toʻrt guruhga boʻladi:

1. Eng qadimgi tillar.

2. Qadimgi tillar.

3. Yangi tillar.

4. Eng yangi tillar.

S.E Mavlov oʻz tasnifi uchun turkiy tillardagi til orqa **g**, **gʻ** undoshlarini unlilarga va qadimgi tillardagi jarangsiz undoshlarning yangi tillarda jarangli undoshlarga oʻtishi kabi fonetik hodisalarni oʻz tasnifi uchun asos qilib oladi.

Turkiy tillarni tasniflashda N. A. Baskakovning xizmatlari ayniqsa samarali boʻldi. Uning asarlarida turkiy tillarning ilmiy nazariy jihatidan ancha mukammal genealogik tasnifi beriladi. Bu tasnifga koʻra turkiy tillar dastlab ikki katta qanotga ajratiladi: 1) gʻarbiy xun qanoti; 2) sharqiy xun qanoti.

Gʻarbiy xun qanoti toʻrt taromoqqa boʻlinadi:

1. Bulgʻor tarmogʻi. Bunga qadimgi bulgʻor, xazar va hozirgi chuvash tili kiradi.

2. Oʻgʻuz tarmogʻi. Turkman, gagauz, ozarbayjon, turk tillari kiradi.

3. Qipchoq tarmogʻi. Bunga qaraim, qumiqliq, qrim tatarlari, tatar, boshqird, qoraqalpoq, qozoq tillari kiradi.

4. Qarluq tarmog'i. Qadimgi uyg'ur, eski o'zbek tili va hozirgi o'zbek, uyg'ur tillari kiradi.

Sharqiy xun qanoti ikki tarmoqqa bo'linadi:

1. Uyg'ur-o'g'uz tarmog'i. Bunga qadimgi o'g'uz tili va hozirgi tuva, qaragas, yoqut, xakas, shor tillari kiradi.

2. Qirg'iz-qipchoq tarmog'i. Bunga qadimgi va hozirgi qirg'iz tili va oltoy tillari kiradi. O'z navbatida yuqorida ko'rsatilgan guruhlarining har biri yana bir qancha guruhlariga bo'linadi.

O'zbek turkshunosligida ham turkiy tillarni tasniflash borasida ayrim ishlar amalga oshirilgan.

Mavzu: "Turkiy yozuvlar tarixi".

T a y a n c h t u s h u n c h a l a r: *yozuv, piktografik yozuv, ieroglifik va mixsimon yozuv, bo'g'in yozuvi, alifboli yozuv, ko'k turk xati, turkiy tamg'alar, uyg'ur yozuvi, oromiy tizimiga kiruvchi yozuvlar, arab yozuvi.*

D a r s y o ' r u g ' i :

- Yozuv va uning jamiyat ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida tutgan o'rni.
- Yozuvning yuzaga kelishi va uning turlari. Piktografik, ideografik, bo'g'in va alifboli yozuv.
- O'rta va Markaziy Osiyoda yozuv madaniyati tarixidan.
- Ko'k turk xati ajdodlarimiz qo'llagan eng qadimiy yozuv.
- Ko'k turk xatining kelib chiqishi va uning takomili.
- Uyg'ur xati va uning qo'llaniluv tarixi.
- Arab yozuvi va turkiy xalqlar arab xatini o'zlashtirishining asoslari.

D a r s n i n g q i s q a b a y o n i :

Yozuv insoniyat yaratgan eng buyuk ixtirolardandir. Yozuvning yaratilishi juda katta ahamiyatga ega. U madaniyat va tilning taraqqiyotiga ijobiy hissa qo'shdi. Yozuv voqea va hodisalarni abadiylashtirish hamda ularni (axborotni) uzoq masofaga yetkazish imkonini berdi.

Ko'pchilik olimlarning fikricha, har qanday yozuv asosida rasm chizishlik yotadi. Shuning uchun hozirgi zamon yozuvi bo'lmagan paytda odamlar ba'zi hodisa va voqealarni uzoq masofaga yetkazish niyatida narsalarning rasmini chizish yo'li bilan amalga oshirishgan. Bunday yozuv *piktografik* yozuv deb nom olgan. Bu atama ikki so'zdan iborat bo'lib, birinchi yarmi lotincha "pictus" (chizilgan) va ikkinchi yarmi grekcha "grapho" (yozaman) degan ma'nolarni anglatadi.

Piktografik yozuv asta-sekin mukammallashib bordi va natijada *ieroglifik* (grekcha "idea" tushuncha va "grapho" yozaman degan so'zlardan tashkil topgan) yozuv paydo bo'ldi.

Ba'zi olimlar yozuvning bu turini logografik (grekcha "logos" so'z va "grapho" yozaman degan so'zlardan tashkil topgan) yozuv deb atashadi.

Logografik yozuvning biroz mukammallashtirilgan ko'rinishi *ieroglifik* yozuv deb nom olgan. Ieroglif so'zi grekcha "hieroglyphoi" so'zidan olingan bo'lib, u "muqaddas yozuv" demakdir.

Yozuv madaniyati tarixida eng tugal yozuv sifatida *fonografik yozuv* tan olinadi. Bu so'z grekcha bo'lib, u "phone" tovush "grapho" yozaman degan ma'nolarni anglatadi. Shunday qilib, fonografik yozuv tildagi so'zni ma'nosini ifodalash bilan birga uning fonetik tuzilishini, ya'ni so'zning tovush tarkibini ham aks ettirar edi.

Eramizdan burungi III mingyilliklarda Old Osiyo va Yer O'rta dengizi bo'ylarida yashagan xalqlarda tilshunoslik tasavvurlari yuqori darajada bo'lgan. Bu zaminda yaratilgan ko'plab yozuv sistemalari bunga shohidlik beradi. Bu borada finikiyaliklar ancha oldinga ketishgan edi. Bugungi rivojlangan yozuv tizimlari ana shu finikiyaliklar yaratgan fonetik yozuvlarning yuksalgan ko'rinishidir.

Turkiy xalqlar ham o'z tarixlari davomida bir qancha tugal fonetik yozuvlarni qo'llaganlar. Turkiy xalqlarning tarixiy, ma'naviy, madaniy merosini o'rganishda bizgacha yetib kelgan, yozuv madaniyati yodgorliklarining ahamiyati cheksiz.

Turklar o'z tarixi davomida bir qancha yozuvlardan foydalandilar. Ularning muhimlari *ko'k turk*, *turkcha*, *arab* xatidir. *ko'k turk* (=urxun-enisey, = turkiy - run, = qadimgi turkiy) alifbosi ajdodlarimizning o'zlari yaratgan, bizga ma'lum bo'lgan eng ko'hna yozuvidir. Mazkur yozuv meloddan avval shakllangan bo'lib, eramizning 1X asrlarigacha turkiylarning asosiy xati sifatida amalda bo'ldi.

Ilk o'rta asrlarga kelib, turklar oromiy yozuvi tizimiga borib tutashuvchi *turkcha* (= uyg'ur, = qadimgi uyg'ur) xatni yaratdilar. Turk xoqonliklaridan keyingi davrlarda turkcha yozuv shuhrat topdi. turkcha xat taxminan, VI asrda shakllanib, O'rta Osiyoda XV asrning oxirlariga qadar, Sharqiy Turkistonning ichki rayonlarida, buddaviylar orasida esa XVIII asrda ham qo'llanilgan.

Arab (= eski o'zbek, = turkiy) *yozuvi* X asr o'rtalarida Qoraxoniylar davlatida, islom ta'sirida qabul qilindi. Shu keزدan boshlab, musulmon turklar orasida turkcha xat bilan bir qatorda arab xati ham amal qila boshladi. Ushbu yozuv turkiy xalqlar orasida XX asrning 30 - yillariga qadar keng qo'llanildi.

Mavzu: "Qadimgi turkiy adabiy tilning yozma yodgorliklari".

T a y a n c h t u s h u n c h a l a r: *Kul tigin*, *Bilga xoqon*, *To'nyuquq bitigtoshi*, *yenisey bitiglari*, *talas bitiglari*, "*Xuastuanift*", "*Irq bitigi*", "*Oltin tusli yorug'*", "*Maytri simit*", "*Syuan-szan kechmishi*".

- Yozma yodgorliklarning xalq tili, davlatchilik va madaniyat tarixini o'rganishdagi o'rni.
- Ko'k turk xatidagi yozma yodgorliklarning topiluv va o'rganilish tarixi.
- Urxun va Yenisey tevaragidan topilgan bitiglar.
- Ko'k turk yozma yodgorliklarining topligan o'rniga ko'ra guruhlanishi.
- Eramizning VIII – X asrlarida turkcha xatda bitilgan yozma yodgorliklar.
- Moniylik mazmunida bitilgan turkiy yozma yodgorliklar.
- Budda dini mazmuni singdirilgan turkiy tildagi asarlar.

Darsning qisqa bayoni:

Turkiy xalqlarning ma'naviy, madaniy merosini o'rganishda bizgacha yetib kelgan, yozma yodgorliklarning ahamiyati cheksiz. Turkiy xalqlarning eng eski yozma yodgorliklari ko'k turk yozuvida bitilgan bo'lib, ular quyidagilardir:

Kul tigin bitigi. Ikkinchi turk xoqonligining shahzodasi (tigin) Kul tigin sharafiga 732 yilda o'rnatilgan qabrtosh. Yodgorlik Mo'g'ulistonning Urxun daryosining bo'yidan topilgan. Bitigtosh matnini Yo'llug' tigin yozgan.

Bilga xoqon bitigi. Ikkinchi turk xoqonligining podshohi Bilga xoqon xotirasiga atab 735 yili tiklangan yodgorlik toshi.

Ushbu bitigtosh ham Mo'g'ulistonning Urxun daryosi yaqinidan topilgan. Xotira bitigining muallifi Yo'llig' tigin.

To'nyuquq bitigi. Ikkinchi turk xoqonligining bosh vaziri To'nyuquqqa bag'ishlab o'rnatilgan ikki toshdan iborat toshbitig. Tiklangan davri aniq emas. Turkshunoslar yodgorlik 712 – 734 yillar oralig'ida bitilgan deb qarashadi. Bitigtosh matnini To'nyuquqning o'zi yozgan. 62 qatorli mangutosh Mo'g'ulistondan topilgan.

Kulicho'r bitigi. Ushbu bitigtosh ham Mo'g'ulistondan topilgan. Kulicho'r sharafiga tiklangan. U "cho'r" unvoniga qaraganda ikkinchi turk xoqonligining davlat arboblardan bo'lgan.

Yenisey bitigtoshlari. Turkshunoslikda yenisey bitiglari oti bilan atalayotgan bitigtoshlar Oltoy, Sibir va Yenisey havzasi tevaragidan topilgan. Ular qabrtosh va qoyatoshlarga bitilgan juda ko'p sonli kichik matnlardan iborat.

Talas bitiglari. Talas vodiysidan topilgan bo'lib, bir necha katta-kichik toshlarga yozilgan xotira bitiglaridan iborat.

Qadimgi turkiy adabiy tilning yozma yodgorliklari orasida moniylik muhitida yaratilgan turkiy yozma obidalarining o'rni katta. Ushbu turk-moniy yodgorliklari ko'k turk, uyg'ur va moniy yozuvlarida.

“Xuastuanift”. Moniylik diniga ishonuvchilarning tavbanomasi. U VIII asrda yaratilgan. Fanda asarning uch qo‘lyozma nusxasi ma‘lum.

Shuningdek, kunimizga qadar moniylik muhitida yaratilgan “Irq bitigi” (folnoma), moniylik mazmuni singdirilgan ko‘plab sher va aloqovlar yetib kelgan.

Qadimgi turkiy adabiy tilning eng ko‘p yozma yodgorliklarini buddaviylik mazmunidagi asarlar tashkil etadi. Buddizmning diniy-falsafiy, tarixiy, badiiy asarlari orasida **“Maytri simit no‘m bitig”**i (“Maytri bilan uchrashish kitobi”) turkiy adabiyot tarixida ilk dramatik asar sifatida o‘rganiladi.

“Oltun yorug‘”. Turk-budda falsafasining muhim asarlaridan. Asarni xitoy tilidan turkiy tilga Sengqu Seli o‘g‘irgan.

“Syuan Szan kechmishi”. Ushbu asar rohib Syuan Szanning Buddha yashagan o‘lkaga safari to‘g‘risidagi asar bo‘lib, o‘zida o‘nlab budda afsona va rivoyatlarni jamlagan.

Mavzu: “Eski turkiy adabiy tilning yozma yodgorliklari”.

T a y a n c h t u s h u n c h a l a r: *dostonlar, masnaviy, didaktik adabiyot, qissachilik, noma janri, she‘riy devon.*

D a r s y o ‘ r u g ‘ i :

- Islom muhitida turkcha xatda bitilgan turkiy yodgorliklar.
- Arab xatidagi ilk turkiy yodgorliklar.
- XI–XIII yuzyilliklarda bitilgan turkiy yozma obidalar.
- XIV–XV asrlarning yodgorliklari.

D a r s n i n g q i s q a b a y o n i :

XI–XV yuzyilliklar turkshunoslikda eski turkiy adabiy til davri sifatida o‘rganiladi. Turkiy tilning nodir namunalari ayni kezlarda yaratilgan.

“Qutadg‘u bilig”. Qoraxoniylar davrining buyuk dostoni “Qutadg‘u bilig” 1069 yilda yozib tugallagan. Asar muallifi Yusuf Xos Hojib o‘z dostonini qoraxoniylar davlatini idora qilish usuli, siyosati, qonun-qoidalari, rasmi odatlari, axloq prinsiplarini o‘zida mujassamlashtirgan nizomnoma, qomus sifatida bitgan. Asar 6500 baytdan iborat.

“Qutadg‘u bilig”ning fanda uch qo‘lyozmasi ma‘lum. Ularning biri uyg‘ur yozuvida bitilgan bo‘lib, turkshunoslikda vena nusxasi, ikkisi arab yozuvli bo‘lib, qo‘lyozmalardan biri namangan, ikkinchisi qohira nusxasi deb yuritiladi.

“Hibatul haqoyiq”. Ahmad Yugnakiyning “Hibatu-l-haqoyiq” dostoni o‘tmish ajdodlarimizning axloq normalariga bag‘ishlanadi.

“Devoni hikmat”. Turkiy sufiylik adabiyotining yirik vakili Ahmad Yassaviyning bizgacha “Devoni hikmat” oti bilan yuritiluvchi nazmiy merosi yetib kelgan.

“Turkiy tafsir”. Islom dinining bosh kitobi Qur‘oni karimni turkiy tillarga o‘g‘irish va sharhlash o‘rta asrlardayoq amalga oshirilgan. Ana shunday

tafsirlardan eng eskisi Qarshidan topilgan bo'lib, fanda "Qarshi tafsiri" yoki "Turkiy tafsir" otini olgan.

XIV–XV asrlar turkiy xalqlar adabiyoti tarixida ko'tarilish yuz bergan davr sifatida kirgan. Bu kezlarda eski turkiy tilning ko'plab noyob yodgorliklari yaratildi.

"O'g'uzxoqon" dostoni. Turkshunoslikda "O'g'uzxoqon" dostoni yoki "O'g'uznoma" oti bilan shuhrat topgan asarning eng eski nusxasi uyg'ur xatida ko'chirilgan.

Ushbu qo'lyozmasi hozir Fransiya milliy kutubxonasida saqlanmoqda. Asar XIII – XIV asrlarda ko'chirilgan.

"Qisasi Rabg'uziy". Burxoniddin Nasiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" yoki "Qisasi anbiyo" asari payg'ambarlar tarixiga bag'ishlangan.

XIV – XIV asrlarning adabiy tili "chig'atoy turkiysi" oti bilan yuritiladi. O'sha kezlarda chig'atoy turkiysida bitilgan asarlar ko'pchilikni tashkil etadi. Bular: "Xusrav va Shirin", "Nahjul farodis", "Muhabbatnoma", "Dahnoma", "Latofatnoma", "Mahzanul asror", "Sirojul qulub", "Rohatul qulub", "Tazkirai avliyo", Lutfiy asarlari, Sakkokiyning devoni, Alisher Navoiy asarlari ana shular sirasidandir.

Mavzu: "Qadimgi va hozirgi turkiy tillarning munosabatlari".

T a y a n c h t u s h u n c h a l a r: hozirgi turkiy adabiy tillar, fonetik farqlar, leksik o'zgachaliklar, adabiy norma, adabiy til, dialektal ajralish, turkiy adabiy tillarning yuzaga kelish tarixi.

D a r s y o' r u g' i:

- Qadimgi turkiy adabiy tilning hozirgi turkiy tillarga munosabati.
- Eski turkiy adabiy til va uning hozirgi turkiy tillarning shakllanuvda tutgan o'rni.
- "Chig'atoy turkchasi". Uning hozirgi turkiy tillarga munosabati.
- Hozirgi turkiy adabiy tillar.

D a r s n i n g q i s q a b a y o n i:

Turkshunoslikda qadimgi turkiy adabiy tillar va ularning hozirgi turkiy tillarga munosabati masalasi tortishuvli mavzular qatorida turadi. Bu masalaning yechimi, tabiiyki, hozirgi turkiy adabiy tillarning yuzaga kelish tarixini o'rganishda kerakli material berishi tayin.

Qadimgi turkiy adabiy tilda bitilgan ko'k turk va uyg'ur yozuvlarida bitilgan yodgorliklar yagona adabiy til me'yori ta'sirida yaratilganiga qaramay, matnlar tilida xos xususiyatlar kuzatiladi.

Masalan, yodgorliklar tilida b=m hodisasini kuzatish mumkin. Urxun yodgorliklari tilidagi so'z boshida kelgan b uyg'ur yozuvli matnlarda m ga o'tadi: ben – men, bänjü – mänjü kabi. Matnlardagi bu kabi o'zgachalik hozirgi o'g'uz va qarluq guruhlaridagi fonetik hodisalarning asosini ko'rsatadi.

Eski turkiy adabiy tilning hozirgi turkiy tillarga munosabatini belgilashda Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari nihoyatda qimmatli faktik materiallar beradi. Shu o'rinda Mahmud Koshg'ariy tomonidan o'g'uzlar qo'llaydigan so'zlar sifatida: a'saq "past, quyi", ekin "ekin", eylā "shunday", pamuq "momiq, paxta", qurt "bo'ri" beriladi. Ushbu so'zlar Mahmud Koshg'ariy davrida dialektal so'zlar qatorida bo'lgan. Hozir esa turk yozma tilining (yazı dili) adabiy normasiga ko'tarilagan. Faktlar hozirgi turkiy tillar orasidagi fonetik, leksik o'zgachaliklar qadim kezlarda boshlangan jarayon ekanini, bu farqlar eski turkiy adabiy til davrida dialektal xususiyatlar sifatida qayd etilgan bo'lsa, bugungi turkiy adabiy tillar uchun adabiy normaga aylangan.

Mavzu: "Turkiy tillar qurumi".

T a y a n c h t u s h u n c h a l a r: tovush, tovush tizimi, fonetik hodisalar, singormonizim, rotasizim, lamdaizim; leksika, leksikologiya, umumturkiy qatlam; so'z yasalishi, affiksasiya, agglyutinasiya, agglyutinatativ tillar; o'zak, affiks, so'z shakllari, so'z turkumlari; gap bo'laklari, sintaksis.

D a r s y o' r u g' i:

- Turkiy tillarning qarindoshligini ko'rsatuvchi belgilar.
- Turkiy tillarning tovush tizimi.
- Turkiy tillar leksikasi va umumturkiy qatlam.
- Turkiy tillarda so'z yasalishi masalasi.
- Turkiy tillar morfologiyasi.
- Turkiy tillarning sintaktik qurumi.

D a r s n i n g q i s q a b a y o n i:

Turkiy tillarni dunyoning boshqa tillaridan ayirib turuvchi o'zgachaliklar mavjud. Chunonchi, turkiy tillar uchun xos bo'lgan singormonizim, so'z boshida undoshlarning ketma-ket kela olmasligi, o'zakning o'zgarmasligi, gap bo'laklarining joylashish tartibi kabi xususiyatlar uni o'zgachaligini ko'rsatib turadi. Ana shunday til o'zgachaliklarining yig'indisi til oilasining til qurumi deb ataladi.

Hozirgi turkiy tillarda unli va undoshlarning soni bir xil emas. Ayrim turkiy tillarda unlilarning miqdori 20 dan otiq (tuva, gagauz, chulim-tatar tillarida), ko'pchiligida 8 ta. Undoshlarning sonida esa katta farq sezilmaydi.

Turkiy tillarni bir til oilasiga birlashtirib turuvchi xususiyatlardan biri lug'at tizimining bir-biriga juda yaqinligidadir. Barcha turkiy tillar lug'at boyligining asosiy bo'lagini umumturkiy qatlamdagi so'zlar tashkil etadi. Shu bois, turkiy xalq vakillari o'z ona tillarida so'zlashganlarida biri-birini muayyan darajada tushuna oladilar.

Turkiy tillar faqat kelib chiqish jihatdan qardosh bo'lib qolmasdan, ayni kezda tipologik (grammatik qurilish) jihatdan bir xil. Shuning uchun turkiy tillarning bari agglyutinativ tillar uyumiga kiradi. Turkiy agglyutinativ tillarning o'zgachaligi quyidagilarda ko'rinadi:

1. So'z hamisha o'zakdan boshlanadi.
2. O'zak, asosan, o'zgarmasdir. O'zakdan keyin qo'shilgan har qanday qo'shimcha o'zakni fonetik jihatdan o'zgartirmaydi.
3. So'z shakllari affikslar yordamida yuzaga keltiriladi.
4. O'zak va qo'shimcha birikib ketmaydi. Ular orasidagi chegara ko'p hollarda aniq va oydin bo'ladi.
5. Har bir grammatik ma'noni ifoda etishda alohida affiks qo'shiladi. Shuning uchun bir so'z shaklida bir necha qo'shimchalar ketma-ket, qator keladi: so'z + *la* + *sh* + *gan* + *ingiz* + *ni* kabi.

Turkiy tillarning sintaktik qurumi ham o'ziga xos. Turkiy tillarda gap bo'laklari, boshqa til oilalaridagi tillardan farqli o'laroq, o'zining muntazam joylashuv tartibiga ega. Agar so'zlovchi gapdagi biror bir bo'lakni ajratib ko'rsatish maqsadi bo'lmasa, ko'pincha gapning boshida ega o'z qurshovi bilan, gapning oxirida kesim keladi.

Mavzu: “Hozirgi turkiy xalqlar. Ularning madaniy-etnografik tarixi”.

T a y a n c h t u s h u n c h a l a r: *turkiy xalqlar yashaydigan o'lkalar, turk ellari; o'zbeklar, uyg'urlar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, ozarbayjonlar, turklar, tatarlar, boshqirdlar, yoqutlar, qirimlar, gagauzlar, qorachoylar.*

D a r s y o' r u g' i:

- Hozirgi turkiy xalqlarning joylashuv o'rinlari.
- O'rta va Markaziy Osiyo turkiy xalqlari. Ularning madaniy-etnografik tarixi.
- Kichik Osiyo mintaqasidagi turkiy xalqlar. Ularning madaniy-etnografik tarixi.
- Edilbo'yi va Ural hududidagi turkiy elatlar va ularning madaniy-etnografik kechmishi.
- Sibirdagi turkiy qavmlar. Ularning madaniy-etnografik tarixi.
- Kavkaz va Qrimdagi turkiy xalqlar va ularning madaniy-etnografik tarixi.

D a r s n i n g q i s q a b a y o n i:

Oltoy tillari oilasiga kiruvchi xalqlar orasida turkiy qavmlar joylashuv yerining kengligi va aholi sonining ko'pligi jihatidan birinchi o'ringa turadi.

Turkiy xalqlar tarixan hozir yerlashgan o'rinlari yashab keladilar. Ular, asosan, Yevroosiyo materigining katta hududlari – Markaziy Osiyo, Mo'g'ulistonning g'arbiy qismi, Sharqiy va G'arbiy Sibir, Edilbo'yi va Ural, Kavkaz va Kavkazorti, Ukraina va Litvaning g'arbi, Qrim yarim oroli,

Moldaviya, Bolqon davlatlari, Kichik Osiyo, Eron, Afg'onistonning shimoliy viloyatlari hamda Sharqiy va G'arbiy Yevropa davlatlarida yerlashgan.

Ulardan o'zbek, qozoq, qirg'iz, qaraqalpoq, turkman, uyg'ur Markaziy Osiyo turkiy xalqlarini tashkil etadi. Mo'g'ulistonning g'arbiy qismi hamda Sharqiy va G'arbiy Sibirda esa yoqut (saxa), xakas, tuva, shor, qaragas, telengut, sibir tatarlari, oltoyliklar yashaydilar. Tatar, boshqird, chuvashlar Edilbo'yi va Uralda joylashgan turkiy xalqlardir. Ukraina va Litvaning g'arbiy viloyatlarida ham turkiy xalqlardan sanaluvchi qaraim (qaray), tatarlar yashaydi. Qrim tatarlari (qrimlar) tarixan Qrim yarim orolida yashab keladilar. Qumuq, qorachoy, balqar, nug'ay, ozarbayjonlar Kavkaz va Kavkaortida yerlashgan turkiy xalqlarga kiradi. Kichik Osiyo mintaqasining asosiy aholisi turklardir. Shuningdek, turklar Bolqon va G'arbiy Yevropa davlatlarida ham katta etnik guruh qatorida tan olinadi. Eron aholisining katta bo'lagini ozariylar, turklar, turkmanlar, afsharlar tashkil etadi. Afg'onistonning shimoliy viloyatlarida ham turkiy xalqlar, chunonchi, o'zbek va turkmanlar yashaydi.

O'qish uchun beriladigan adabiyotlar:

- Abdurahmonov G'., Rustamov A.* Qadimgi turkiy til. Toshkent, 1982.
Ahmedov B. O'zbek ulusi. Toshkent, 1992.
Baskakov N.A. Tyurkskie yazike. M. 1960.
Baskakov N.A. Vvedenie izuchenie tyurkskix yazikov. M. 1969.
Bernshtam A. I. Ocherk istorii gunnov. L., 1951.
Gumilev L. N. Drevnie tyurki. M., 1967.
Diringer D. Alfavit. M. 1963.
Koshg'ariy Mahmud. Devonu lug'otit turk I-III. Toshkent, 1960-1963.
Malov S.E. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti. M.-L., 1951.
Omonov Q. Markaziy Osiyo xalqlari yozuv madaniyati tarixida do'rbaljin xatining o'rni. – Xitoy va Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy, adabiy, til aloqalari: o'tmish va hozirgi zamon. Toshkent, 2004. 32-37 b.
Ramsted G.I. Vvedenie v altayskoe yazikoznanie. Morfologiya. M.1957.
Sodiqov Q. Ko'k turk bitiglari: matn va uning tarixiy talqini. Toshkent, 2004.
Sodiqov Q. Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi. Toshkent, 2006.
Sodiqov Q. Qadimgi turk falsafasi. Toshkent, 2008.
Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Nashrga tayyorlovchi Q. Karimov, Toshkent, 1971.
IIIerbak A.M. Grammatika starouzbekskogo yazika. M.-L., 1962.
Sertkaya O.F. Islami Devrenin Uygur Harfli Eserlerine Toplu Bir Bakış. Bochum, 1977.
Sertkaya O.F. Göktürk Tarihinin Meseleleri. Ankara, 1995.